

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA VATANPARVARLIK FAZILATI

Rahimberdiyev Shahriyor Ulug'bek o'g'li

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Menejment" ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalqining ardoqli shoiri Muhammad Yusuf ijodining markaziy va yetakchi mavzusi bo'lmish vatanparvarlik fazilati hamda uning badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoirning sodda va ravon tilda yaratilgan asarlari orqali milliy o'zlikni anglash, yurt sog'inchi va vatanparvarlikning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning shoir ijodiga bergan yuksak bahosi va Muhammad Yusuf xotirasini abadiylashtirish borasida amalga oshirilgan madaniy-ma'rifiy ishlarga ham to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, milliy o'zlik, sadoqat, ijod maktabi, ma'naviy meros, xalqchilik.

Аннотация: В данной статье анализируется центральная и ведущая тема творчества заслуженного поэта узбекского народа Мухаммада Юсуфа, а также её художественная интерпретация. Произведения поэта, созданные простым и беглым языком, раскрывают понимание национальной идентичности, специфические черты тоски по родине и патриотизма. Также затрагивается высокая оценка творчества поэта президентом Шавкатом Мирзиёевым и культурно-просветительская работа, проводимая для увековечения памяти Мухаммада Юсуфа.

Ключевые слова: патриотизм, национальная идентичность, верность, творческая школа, духовное наследие, популяризация.

Abstract: This article analyzes the central and leading theme of the work of the honored poet of the Uzbek people, Muhammad Yusuf, as well as its artistic interpretation. The poet's works, created in a simple and fluent language, reveal the understanding of national identity, the specific features of longing for the homeland and patriotism. It also touches on the high assessment of President Shavkat Mirziyoyev of the poet's work and the cultural and educational work carried out to perpetuate the memory of Muhammad Yusuf.

Keywords: patriotism, national identity, loyalty, creative school, spiritual heritage, popularism.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Muhammad Yusuf xalqimiz sevgan samimiy shoir, vatanparvar inson edi. Sizlar uning munosib davomchilari bo‘lishingiz kerak” degan fikrlari shoir shaxsiga berilgan yuksak baho, kelajak avlod oldiga qo‘yilgan ulkan ma’naviy vazifadir. Darhaqiqat, Muhammad Yusuf ijodi o‘zbek xalqining sodda va beg‘ubor ko‘ngli, ona yerga bo‘lgan cheksiz sadoqati va milliy g‘ururining yorqin ifodasidir. Uning har bir satrida yurt sog‘inchi, qishloq havosi va xalqona dard shunday samimiyat bilan ufurib turadiki, bu ohanglar har bir kitobxon qalbida vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usini qaytadan uyg‘otadi.

Prezidentimiz tomonidan bildirilgan ushbu e’tirof, bugungi yosh ijodkorlar va butun yangi avlod uchun o‘ziga xos ma’naviy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Muhammad Yusufning munosib davomchisi bo‘lish albatta, shunchaki she’r yozish emas, millat dardini o‘z dardi deb bilish, yurt tinchligi va ravnaqi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishdir. Shoir hayoti va uning o‘chmas merosi bugungi kunda milliy o‘zlikni saqlab qolish, ona tilini ardoqlash va Vatan timsolini muqaddas asrashda eng ishonchli mayoq vazifasini o‘taydi. Samimiyat va vatanparvarlik birlashgan nuqtada Muhammad Yusuf kabi boqiy siymolar shakllanadi.

Vatanparvarlik haqida balandparvoz nutqlar so‘zlash mumkin, ammo qalbga yo‘l topish uchun har doim ham hayqiriqlar kifoya qilmaydi. Gohida birgina samimiy misra minglab ma’ruzalardan ko‘ra ko‘proq kuchga ega bo‘ladi. O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf ijodi aynan shunday qudratli manbadirki, u yoshlar qalbida Vatanga bo‘lgan sadoqatni shunchaki burch sifatida emas, hayotiy ma’naviy ehtiyoj, muhabbat va e’tiqod darajasiga ko‘taradi. Ha, haqiqatan, shoir she’riyati millatning o‘zligini anglash sadosi bo‘lish bilan birga, ona tuproqqa sadoqatning o‘ziga xos ramziy ifodasidir. Unga O‘zbekiston Qahramoni, xalq yozuvchisi Said Ahmad quyidagicha ta’riflagan: “Muhammad Yusuf pokiza inson edi. U odamlarni o‘ylatgan, kuldirgan, yig‘latgan, topgan-tutganini odamlar ustidan sochgan saxiylik timsoli edi. Muhammad hammani o‘ziga do‘st deb bilardi. Hech kimni begona sanamasdi. Muhammad Yusuf tez og‘izga tushdi. Birorta shoir uningdek tez nom chiqarmagan, nomdor bo‘lmagan. Aslini olganda, asl shoirlar uzoq yashamaydilar. Ammo ortidan abadiy yashaydigan meros qoldirib ketadilar. U mana shunday o‘lmas meros qoldirdi.

Muhammad muxlislarining yuragini o‘rtab ketdi. Endi shoirning o‘zi yo‘q. Ammo Muhammad Yusuf deb atalgan, she‘riyat bor. Bu she‘riyat aslo zavol bilmaydi”¹.

Muhammad Yusuf she‘rlarining bosh g‘oyasi Vatanni boricha, bor kamchiliklari va go‘zalliklari bilan sevishdir. Bugungi axborot oqimi shiddatli tus olgan bir paytda, yoshlarning ma‘naviy olamini asrab qolish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shoirning “Iqror”, “O‘zbekiston”, “Ulug‘imsan Vatanim” kabi turkum she‘rlari yosh avlodga Vatan deganda xaritada chiziqlari bilan birga, ota-ona duosi, bolalik o‘tgan ko‘chalar, ayvon chetidagi rayhonlar va ajdodlar xotirasini tasavvur qilishni o‘rgatadi. Obrazlar yoshlar ongida Vatan tushunchasini mavhumlikdan qutqarib, uni jonli va qadrlı tuyg‘uga aylantiradi.

O‘zbek she‘riyatiga chashmadek tiniq, daryodek chuqur, ummondek teran satrlarni, “tesha tegmagan” obrazlarni olib kirgan Muhammad Yusuf o‘z ovozi, o‘z uslubiga ega ijodkor edi. Shoir mashhurlik yoxud mansabni ko‘zlab emas, ko‘ngilda borini, dil kechinmalarini, millatning orzu-armonlarini yonib yozar edi. “Muhammad Yusuf qo‘shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ta‘riflagan she‘rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi. Uning yozganlari nihoyatda dolzarb mavzuda, o‘ta jiddiy, ammo xalq diliga juda yaqin va ravon tilda yozilgan”.

Adabiyotshunoslar ta‘kidlaganidek: “Xalqdan olib, xalqqa berar edi”. Uning ijodida bironta “begona” satr uchramagan. Ularning hammasi tabiiy, quyma satrlar. Muhammad Yusuf she‘riyatida tabiat obrazlari o‘ziga xos o‘ringa ega. Ijodkorning hassos qalbi tabiatning har bir mayda unsurlarini ham yaxshi anglaydi. O‘zini ana shu ona tabiatning bir bo‘lagi deb hisoblaydi. Bunday mazmun shoir she‘rlarida turfa tabiat obrazlari ifodasi orqali akslantirilgan. Muhammad Yusuf tabiat obrazlarini turfa mazmun va maslak uchun qo‘llagan. Ona tabiat shoir uchun ilhom manbai, ifodalash mushkul bo‘lgan hissiyotlariga dastak va aynan mos keladigan timsol, istiora vazifalari uchun asl manba ekanligi yuqoridagi she‘r tahlillaridan ayonlashdi².

Shoir ijodidagi vatanparvarlik tarbiyasining o‘ziga xosligi shundaki, u o‘quvchini sevishga majburlamaydi, sevmaslikning iloji yo‘qligini badiiy bo‘yoqlar orqali ko‘rsatib beradi.

¹ Muhammad Yusuf degan bezavol she‘riyat bor...// gaz. Toshkent haqiqati №27 (13789). – Toshkent, Sharq. 2025.

² Fayzullayeva O. Muhammad Yusuf she‘riyatida Muhammad Yusuf she‘riyatida tabiat obrazlari// gaz. Yangi Sirdaryo № 16. – Guliston, Sharq. 8 b.

Muhammad Yusufning nihoyatda o‘ziga xos shoir ekanini yaqqol isbotlaydigan yana bir qiziq holat mavjud. Ya’ni uning uslubida yozishga, unga o‘xshatib yozishga harakat qilganlar, hatto unga taqlid qiluvchilar ko‘p bo‘ldi. Ammo...

Sen – shoxlari osmonlarga

Tegib turgan chinorim,

Ota desam,

O‘g‘lim deb,

Bosh egib turgan chinorim,

Qo‘ynimdagi iftixorim,

Bo‘ynimdagi tumorim,

O‘zing mening ulug‘lardan

Ulug‘imsan, Vatanim!

Bu she‘r kuy va yangroq ovozdan qanot bog‘lab, qo‘shiq bo‘lib, mashhur va xushovoz xonanda Sevara ijrosida cheksiz dengizlar, qirg‘oqlari nihoyatda keng ummonlar, behudud kengliklar osha yuksak parvoz qilib, dunyoni kezib, dilbar shoir Muhammad Yusufning gavharu inju so‘zlarini, o‘zbekning o‘ktam ovozini dunyoga yoymoqda. Shoirga ko‘pchilik ijodkorga nasib etmagan yuksak e‘zoz-e‘tiroflarga erishdi. Bu katta va yuksak, pishiq va puxta asarlar, mashaqqatli ijodiy mehnat tufayli, albatta. Bu haqda so‘z ochilganda, mamlakatimizda shoir xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilganini qisqacha aytib o‘tish ayni muddao bo‘ladi deb hisoblaymiz. Jumladan, 2017-yilda Andijon shahrida Muhammad Yusuf nomida ijod maktabi tashkil etildi va eng zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta‘minlandi. Maktabda shoir muzeyi faoliyat yuritadi.

Muzeydan shoirning shaxsiy buyumlari, nashr etilgan kitoblari, xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellarda bosilgan to‘plamlari joy olgan. Muhammad Yusuf shu ma’noda o‘zbekning chinakam baxtli shoiri. Uning hayoti va ijodini qisqa qilib: “Yonib... o‘chmagan yulduz”, deb ta’riflansa mubolag‘a bo‘lmaydi³.

Shu o‘rnida aytish mumkinki, Muhammad Yusuf ijodi millatning o‘zligini anglatuvchi ma’naviy ko‘zguga aylandi. Uning sodda, ammo dardchil satrlari bugun

³ Ashur S. Muhammad Yusuf hududi// gaz. Yangi O‘zbekiston № 80yu – Toshkent.: Kolorpak, 2024. 6 b.

maktab darsliklaridan tortib, eng muhtasham muzeylar peshtoqigacha ko‘chgan bo‘lsa-da, eng asosiysi xalq qalbining to‘ridan munosib qo‘nim topdi. Shoir xotirasiga ko‘rsatilayotgan bu yuksak ehtirom faqat o‘tgan umrga hurmat emas, balki kelajak avlod uchun qoldirilgan sadoqat sabog‘idir. Zero, nomi maktablarga berilgan, merosi ardoqlangan va har bir o‘zbek xonadonida she‘ri yangrayotgan ijodkor hech qachon unutilmaydi. U o‘zining mangu so‘zi bilan millat ruhining boqiy hamrohiga aylanib ulgurdi.

Vatanga sadoqat faqatgina uni himoya qilish emas, uning har bir qarich yerini, tabiatini va odamlarini e‘zozlashdir. Muhammad Yusuf she‘rlarida oddiy qishloq odamlari, mehnatkash dehqonlar, fidoyi onalar siymosi shunday mehr bilan chizilganki, yoshlar qahramonlar orqali o‘z yaqinlarini, o‘z xalqini qadrlashni o‘rganadi. Sadoqat tuyg‘usi aynan mana shu kichik va samimiy tuyg‘ulardan boshlanadi. Shoirning sodda va ravon tili hatto adabiyotdan yiroq bo‘lgan yosh qalbgga ham yetib boradi, uning dardi bilan yashashga undaydi.

Muhammad Yusuf she‘riyati orqali yoshlarni tarbiyalash ularning qalbiga ezgulik urug‘ini ekish demakdir. Shoir merosi adabiy boylik, kelajak avlodni komil inson, haqiqiy vatanparvar va millatning sodiq farzandi qilib voyaga yetkazishda xizmat qiladigan ma‘naviy quroldir. Uning olovli satrlari har bir yosh o‘g‘il-qizning yuragida:

“Sen bilan o‘tgan har kun bayram-bazm,

Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.

Seni bilganlarga qilaman ta‘zim,

Seni bilmaslarga rahmim keladi” – degan qat‘iy ishonchni mustahkamlaydi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, Muhammad Yusuf she‘riyati o‘zbek adabiyotida vatanparvarlik g‘oyasining mutlaqo yangi, samimiy va xalqona bosqichini boshlab berdi. Shoir uchun Vatan – ona suti, qishloqning chang ko‘chalari, rayhon ifori va xalqning sodda qiyofasidir. Uning ijodidagi vatanparvarlik tushunchasi bevosita insoniy fazilatlar, sadoqat va o‘zlikni anglash bilan uzviy bog‘liqdir.

Shoirning “Vatan” deb atalgan muqaddas hududi uning yuragidan boshlanib, butun millatning umumiy dardiga aylandi. Muhammad Yusuf o‘z ijodi bilan o‘zbek she‘riyatida vatanparvarlikning yuksak andozasini yaratib ketdi. Uning she‘rlari vaqtlar o‘tsa-da eskirmaydi, aksincha, kelajak avlodlar uchun milliy g‘urur va sadoqat

darsligi bo‘lib xizmat qilaveradi. U yulduz kabi yonib, o‘zidan mangu nurli iz qoldirdi – bu nur esa har bir vatanparvar qalbdan munosib o‘rin oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Yusuf degan bezavol she‘riyat bor...// gaz. Toshkent haqiqati №27 (13789). – Toshkent, Sharq. 2025.
2. Fayzullayeva O. Muhammad Yusuf she‘riyatida Muhammad Yusuf she‘riyatida tabiat obrazlari// gaz. Yangi Sirdaryo № 16. – Guliston, Sharq. 8 b.
3. Ashur S. Muhammad Yusuf hududi// gaz. Yangi O‘zbekiston № 80yu – Toshkent.: Kolorpak, 2024. 6 b.